BARÇASI ŞU YERDAN UA ŞU ONDAN BOŞLANADI

TA'LIM ZIYOSI

Xalqaro talabalar kuni muborak!

DEVORDA JONLANAYOTGAN SAN'AT



Ba'zan insonning salohiyatini namoyon etişi uçun köp yillar kerak bölmaydi. Ayrimlar borki, ular ilk qadamlaridanoq öz iştiyoqi, mehnati va qobiliyati bilan atrofdagilar e'tiborini qozonadi. Kursdoşim Husanjon Yöldoşev ana şunday yoşlardan biri.

Hunarmandçilik va amaliy san'atning boy an'analari bilan maşhur Farğona zaminida kamol topgan Husanjonning ijodiy dunyoqaraşida ham bu yurtning nafosati, milliy naqşlarga bölgan mehr va hunarga sadoqat mujassam.

Bugun u Çirçiq davlat pedagogika universitetining birinçi bosqiç talabasi. Interyer dizayn yönalişida tahsil olayotgan Husanjon uçun universitet hayoti yangi bilimlar, ijodiy izlanişlar va katta imkoniyatlar sari oçilgan eşikdir. Biroq uning ijodiy faoliyati talabalik davri boşlanişi bilan çeklanib qolgani yöq.

Ayni paytda Husanjon universitet rektoratida yaratilayotgan «Taraqqiyot silsilasi» barelyef kompozisiyasi ustida iş olib borayotgan ijodkorlardan biri. Uning bu mas'uliyatli jarayondagi iştiroki biz, kursdoşlari uçun ham özига xos namuna. Zero, bu oddiy bezak emas, balki katta mahorat, sabr-toqat, badiiy did va yuksak mas'uliyat talab etadigan murakkab, şu bilan birga, nihoyatda nafis ijodiy jarayondir. Unda har bir çiziq, har bir şakl va har bir mayda detal umumiy kompozisiyaning gözalligi hamda mazmuniy yaxlitligini ta'minlaşga xizmat qiladi.

Husanjonning mehnatsevarligi, öz kasbiga bölgan muhabbati va har bir işga mas'uliyat bilan yondaşişi tahsinga loyiq. Biz, tengdoşlari, uning ijodiy jarayonini qiziqiş va zavq bilan kuzatamiz. Uning çizgilarida milliy amaliy san'at an'analari zamonaviy dizayn qaraşlari bilan uyğunlaşayotganini köriş mumkin.

Men uçun Husanjon şunçaki kursdoş emas. U öz mehnati bilan hurmat qozonayotgan, tanlagan kasbiga sadoqatli va oldiga aniq maqsadlar qöya oladigan yoş ijodkor. Universitetdagi ilk qadamlaridayoq şunday mas'uliyatli va mazmunli ijodiy işga hissa qöşayotgani, albatta, quvonarli.

Işonamanki, bugun «Taraqqiyot silsilasi» kompozisiyasida öz mahoratini namoyon etayotgan Husanjon kelajakda ham köplab gözal va mazmunli ijod namunalarini yaratadi. ÇDPU devorlaridan boşlangan ijod yöli uni yanada yuksak marralar sari yetaklaydi.

Husanjon, sizday mehnatkaş, iqtidorli va öz kasbiga mehr qöygan kursdoşim borligidan faxrlanaman!

Farangiz ERGAŞBOYEVA,
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yönalişi 1-bosqiç talabasi

TALABALARDAN EZGU TAŞABBUS

Talabalik – bu şunçaki bilim oliş, ma'ruzalarda qatnaşiş va imtihonlardan muvaffaqiyatli ötiş davri emas. Bu öz imkoniyatlarini kaşf etiş, taşabbus körsatiş, jamiyat hayotiga daxldorlikni his qiliş va olgan bilimlarini amalda namoyon etiş davridir.

Xalqaro talabalar kuni munosabati bilan ana şunday ezgu maqsadlarni öz oldiga qöygan talabalar taşabbusi haqida söz yuritmoqçimiz.

Ötgan öquv yili davomida Toşkent viloyatidagi qator umumta'lim maktablariga fizika fanidan laboratoriya maşğulotlarini taşkil etiş uçun zarur jihozlarni yetkazib berdik. Maqsadimiz oddiy, ammo muhim edi: öquvçilar fizikani faqat darsliklardan öqib qolmasdan, turli tajribalar orqali uning sir-asrorlarini özlari kaşf etsin.

Zero, formulani yodlaş bilan uning amalda qanday işlaşini öz közing bilan köriş örtasida katta farq bor. Biz, talabalar, buni yaxşi bilamiz: anglab, his qilib örganilgan bilim xotirada uzoq saqlanadi.

Afsuski, köplab maktablarda laboratoriya jihozlari yetarli emas, mavjudlarining ayrimlari esa eskirgan yoki foydalanişga yaroqsiz. Natijada fizika darslari köpinça nazariya bilan çeklanib qoladi. Bizning taşabbusimiz aynan şu muammoni hal qilişga, maktab öquvçilariga amaliy bilim oliş uçun yangi imkoniyatlar yaratişga qaratildi.

Aniq fanlar fakulteti Fizika kafedrasi professor-öqituvçilari bilan hamkorlikda Toşkent viloyatining Parkent, Angren, Bekobod, Böka, Böstonliq, Yangiyöl va boşqa tumanlaridagi maktablarga laboratoriya jihozlarini yetkazib berdik. Ayrim maktablarga universitet rektori boşçiligidagi jamoa bilan birgalikda bordik. Ustozlarimiz rahbarligida laboratoriya qurilmalarini öz qöllarimiz bilan yiğdik.

Men va talaba döstlarim: Başorat, Gulşan, Asalxon, Diyor, Farrux va Mirhayot uçun bu jarayon nafaqat bilimlarimizni amaliyotda sinaş, balki mas'uliyat, hamkorlik va jamoaviy mehnatni örganiş imkoniyati ham böldi.

Jihozlarni maktablarga şunçaki topşirib ketmadik. Öqituvçilarga ulardan foydalaniş tartibini tuşuntirdik, öquvçilar iştirokida namoyişli tajribalar ötkazdik. Lampoçkaning yonişi, mayatnikning tebranişi yoki yoruğlik nurining sinişi – bularning barçasi öquvçilarda katta qiziqiş uyğotdi.



Öquvçilarning hayratga töla nigohlari, qiziqiş bilan bergan savollari va tajribalarni özlari bajarişga bölgan intilişlarini köriş biz uçun eng katta mukofot böldi. Ana şunday lahzalarda qilayotgan işimizning naqadar muhimligini yanada çuqurroq his etdik.

Eng quvonarlisi, taşabbusimiz natijasida maktablarda laboratoriya maşğulotlarini taşkil etiş imkoniyatlari kengaydi, öquvçilar fizik hodisalarni mustaqil tajribalar orqali örganiş imkoniga ega böldi.

Albatta, bu hali boşlanişi. Kelgusida taşabbusimiz geografiyasini kengaytiriş, köproq maktablarni qamrab oliş, laboratoriya jihozlari turini köpaytiriş va fizika fani öqituvçilari uçun amaliy maşğulotlar taşkil etişni rejalaştirganmiz.

Bizning nazarimizda, talabalikning haqiqiy qadri ham şunda – örgangan bilimlaring bilan boşqalarga foyda keltiriş, jamiyatdagi muammolarga befarq bölmaslik va yaxşi taşabbuslarga boş bölişda.

Xalqaro talabalar kuni arafasida aytiş mumkinki, talabalik – imkoniyatlarni kutiş emas, ularni yaratiş davri. Bugun maktab öquvçisining fizika faniga bölgan qiziqişini uyğotayotgan kiçik bir tajriba ertaga katta ilmiy kaşfiyotga sabab bölişi mumkin.

Çunki haqiqiy talabalik – olgan bilimlaringni hayotga tatbiq etiş va kelajak uçun ezgu iz qoldirişdir!

Mukaramxon BOLTABOYEVA,
Fizika va astronomiya yönalişi 4-bosqiç talabasi

TARAQQIYOT TEAM – mening mehnatim, şogirdlarimning yutuqlari!

Imkoniyatlardan foydalanib, avvalo, özim uçun yangi yöllarni oçdim. Örganganlarimni boşqalar bilan baham köriş, yoşlarning salohiyatini yuzaga çiqariş va ularning rivojlanişiga hissa qöşiş maqsadida bundan ikki yil avval 2-talabalar turar joyida TaraqqiyoTTeam jamoasi doirasida turk tili va ilmiy maqolalar yoziş böyiça tögaraklar faoliyatini yölga qöydim.

Bugun yangi xonamiz, yangi imkoniyatlar va ilm olişga intilayotgan köplab şogirdlarim bor. Ularning pedagogik mahoratini oşiriş, ilmiy izlanişlarga qiziqişini kuçaytiriş va yangi marralar sari yönaltiriş men uçun muhim vazifadir. Har safar şogirdlarim oldiga şoşilib boraman. Çunki ular bilan ötkazadigan har bir maşğulotimni yangi bilimlar, qiziqarli tajribalar va foydali suhbatlar bilan boyitişni istayman. Ularning har bir yutuği meni quvontiradi, har bir muvaffaqiyati menga yangi kuç va ilhom beradi.

Ularda bir muhim fikrni şakllantirişga harakat qildim: Til – faqat keyingi bosqiçga ötiş uçun emas, balki hayotda yangi imkoniyatlar eşigini oçadigan vositadir. 4 yilda 4 ta til örgan va mehnat bozorida raqobatbardoş, bilimi va salohiyati bilan ajralib turadigan kadrlardan biriga aylan!

Mening eng katta yutuğim – şogirdlarimning faqat bilim olişi emas, balki öz vaqtlarini mazmunli, qiziqarli va foydali ötkazayotganidir. Ularning örganişga bölgan iştiyoqi, izlanişlari va rivojlanişi menga katta quvonç bağişlaydi. Men uçun eng katta natija – ularning vaqtini şunçaki ötkaziş emas, balki har bir daqiqasini kelajagi uçun sarmoyaga aylantirişdir.

Mirjalol ŞARIPOV,
Logopediya yönalişi, 4-bosqiç talabasi

UNIVERSITET GAZETASI

10 -son

Gazeta içida gazeta

BOKUDAN KELGAN IŞONÇ:

Çirçiqda boşlangan yangi sahifa



Universitetlar çegaralarni bilmaydi. Ba'zan bir yoşning orzusi minglab kilometr masofani ortda qoldirib, uni yangi şahar, yangi muhit va yangi imkoniyatlar sari yetaklaydi. Ozarbayjon poytaxti Bokudan kelgan Iskandar Nuriyevning talaba böliş tarixi ham ana şunday tanlovlardan biri.

Iskandar Nuriyev uçun san'at begona olam emas. Uning oilasida bu sohaga mehr va hurmat alohida örin tutadi. Otasi san'atşunos. Ehtimol, aynan şu muhit Iskandarning qalbida gözallikni his qiliş, san'at asarlarini anglaş va ijod olamiga qiziqiş uyğonişiga turtki bölgandir.

Biroq yoş yigit uçun san'atga qiziqişning özi kifoya emas edi. U öz yölini, öz uslubini va kelajakdagi kasbiy yönalişini belgilaşi kerak edi.

Bu yöl uni Ozarbayjondan Özbekistonga, Bokudan Çirçiqqa olib keldi.

Bugun Iskandar Nuriyev Çirçiq davlat pedagogika universiteti San'atşunoslik fakulteti Kulolçilik yönalişining birinçi bosqiç talabasi. Uning tanlovi tasodifiy emas. Çunki kulolçilik – oddiy hunar emas, balki tuproqqa şakl, ğoyaga jism, tasavvurga esa badiiy ifoda beradigan qadimiy san'at turidir.

NEGA AYNAN ÇDPU?

Bu savolning özi Iskandarning talabalik tarixini yanada qiziqarli qiladi. Axir u san'atşunoslik sohasidagi bilim va tajriba bilan yaqindan taniş bölgan oilada voyaga yetgan. Şunday bölsa-da, özining oliy ta'lim yölini boşlaş uçun Bokudan uzoqdagi Çirçiqni tanladi.

Bu tanlov ortida yangi bilimlar oliş, boşqa madaniy muhit bilan tanişiş, kasbiy salohiyatini rivojlantiriş va mustaqil şaxs sifatida şakllaniş istagi mujassam.

Çirçiq davlat pedagogika universiteti esa uning uçun nafaqat ta'lim oladigan maskan, balki yangi imkoniyatlar, ijodiy izlanişlar va kelajak rejalari sari oçilgan eşikdir.

TILSIZ MULOQOT

Kulolçilikning özига xos jihati şundaki, unda insonning içki dunyosi qöl mehnati orqali namoyon böladi. Bir parça loydan betakror buyum yaratiş uçun nafaqat mahorat, balki sabr, tasavvur va nozik did ham zarur.

Iskandar uçun bu yönalişda tahsil oliş yangi bilimlarni özlaştiriş bilan birga, öz ijodiy imkoniyatlarini kaşf etiş jarayoni hamdir.

Uning talabalik yöli endi boşlandi. Oldinda esa örganiladigan hunarlar, kaşf etiladigan ijodiy imkoniyatlar va amalga oşiriladigan orzular bor.

Bugun Bokudan kelgan Iskandar Çirçiqda tahsil olmoqda. Ehtimol, ertaga u yaratgan san'at asarlari Özbekiston va Ozarbayjon madaniyatlari örtasidagi yana bir gözal köprikka aylanar.

Dilnura BOYMAXMATOVA
Özbek tili va adabiyoti yönalişi 1-bosqiç talabasi

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

TA'LIM ZIYOSI

ÇIRÇIQ TONGI

DARZ KETGAN IŞONÇ



(Davomi. Boşi ötgan sonlarda)

Ğofurjon maktabda öqib yurgan kezlarida öquvçilar turli işlarga jalb qilinardi. Pilla mavsumi boşlanişi bilan öğil bolalarni dasta tergani qöşni Qozoğiston dalalariga olib çiqişardi. Ertalabdan iş boşlagan öspirinlar kun böyi mehnat qilib, keçga yaqin çarçoq bilan qaytişardi.

Bir safar iş tugab, kun botganda yölga çiqişdi. Tekis yölda ketayotgan maşina buzilib qoldi. Haydovçi kapotni oçib, uzoq timirskilandi. Foydasi bölmadi. Bolalar dala çetida guruh-guruh bölib turişardi. Qoronğu quyuqlaşar, manzil esa uzoq edi. Nihoyat, öqituvçilar maslahatlaşib, yaqin qişloqdan maşina yollaydigan bölişdi.

Tengdoşlari orasida faolligi va mas'uliyatliligi bilan ajralib turadigan Ğofurjonga yölkira yiğiş vazifasi topşirildi.

– Hammangizda borini berib turinglar, – dedi u.

Biri çöntagidan mayda tangalarni çiqardi, boşqasi qölidagi sönggi pullarini berdi. Faqat bir sinfdoşi çetda turib qolgandi.

– Sençi? – deb söradi undan.

Bola bir zum dovdirab qoldi.

– Menda yöq…– dedi u istar-istamas.

Uning qöli çöntagida, nigohini yerdan uzmasdi. Gapiga işonib, indaşmadi. Ammo köp vaqt ötmay, uning çöntagida puli borligi ma'lum böldi. Hamma jim bölib qoldi. Haligi bola gap topolmay, özini oqlamoqçi böldi:

– Men… men unutibman... – dedi nihoyat past ovozda.

Şundan keyin tengdoşlari u bilan gaplaşmay qöydi. Ğofurjon bu voqeani çetdan kuzatar ekan, odamlarning muomalasi ba'zan bir gap bilan özgarib ketişi mumkinligini his qildi.

– Öşa kuni men pulning emas, işonçning qadrini tuşundim, – deydi u.

Oradan yillar ötdi. Maktab kunlari xotiraga aylandi. Lekin dalada töxtab qolgan maşina, sanoqli tangalar va öşa oğir sukut unga hamon bir haqiqatni anglatib turadi. Işonç körinmas narsa. Ammo darz ketsa, qalbda çuqur iz qoldiradi.

"MOMOQALDIROQQA QARŞI BORAMAN"

Qutbiniso ona farzandlarini mutolaaga rağbatlantirar, ertak va hikoyalar aytib berardi. Kitob xonadonda eng yaqin döst va eng işonçli ustoz sifatida qadrlanardi. Isroilxoji ota esa farzandlarini mustaqil fikrlaşga va bilim olişga undardi. Bu haqda domla şunday deydi:

– Maktab yillarida Daniil Graninning "Momoqaldiroqqa qarşi boraman" nomli asari mening eng sevimli kitoblarimdan biri bölgan. Qayta-qayta mutolaa qilar ekanman, har safar undan yangi ma'no topardim. Bu qiziqişimni ota-onam ham qöllab-quvvatlardi. Ular mening kitobdan faqat hikoya emas, fikr izlayotganimni sezişardi.

Asar qahramonining matonati va ilmga sadoqati yoş öquvçiga haqiqiy olim böliş uçun faqat iste'dod emas, tinimsiz mehnat va sabot ham zarurligini anglatdi.

"Bugun yana fizika haqida öyladim. Nega ayrim narsalar közga körinmaydi, ammo ularning ta'sirini sezamiz? Elektronlar qanday harakat qiladi? Nur qayerdan paydo böladi? Balki inson tabiatning hamma sirlarini hali bilmas."

Bu öquvçilik davrida tutgan kundalikdagi ilk qaydlar edi. Maktabda fizika fani uni köproq rom etardi. Tabiat qonunlarini anglaş, atrofida keçayotgan hodisalarning sababini biliş istagi har darsda kuçayib borardi.

Elektronlar harakati, energiyaning bir körinişdan ikkinçisiga ötişi haqidagi mavzular unga fizika qonunlarini oçib berayotgandek tuyulardi.

– Men özimni köpinça ilmiy laboratoriyada deb tasavvur qilardim. Stollar ustida murakkab asbob-uskunalar, davom etayotgan tajribalar, taxtaga bitilgan formulalar... Va ularning örtasida tabiat sirlarini tadqiq etayotgan yoş olim, ya'ni men, – deydi suhbatni davom ettirib Ğofurjon Muhamedov.

Uning orzu-umidlari zamon ruhi bilan hamohang edi. Öşa yillarda yadro fizikasi jadal rivojlanib, kosmik kemalarning fazoga uçirilişi uning dunyoqaraşini şakllantirdi. Fanga bölgan iştiyoqini yanada oşirdi.

Gazeta va jurnallarda yangi kaşfiyotlar, olimlar va ilmiy tajribalar haqidagi xabarlarni qoldirmay öqirdi. Nazarida, koinot qançalik ulkan bölsa, inson oldidagi savollar ham şunçalik köpdek tuyulardi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan Ğofurjon, öz kelajagi tomon muhim qadam taşladi. Oldinda hayotining yangi bosqiçi – talabalik yillari turardi. Keyinçalik hayot yölida uçragan sinovlarni yengişida ham bu asar unga yölçiroq böldi.

"ORZUIM UŞALDI"

Yillar ötib, bir kuni javondagi kitoblarni tartiblar ekan, Ğofurjon Muhamedovning qöliga sarğayib ketgan, çetlari titilgan daftar ilindi. Uni ehtiyotkorlik bilan oçdi. Varaqlar orasidan talabalikning hayajoni, kelajak haqidagi beğubor tasavvurlari ufurgandek böldi.

Har bir yozuv, har bir belgi olimni yillar qa'rida qolgan beğubor orzulari va ulkan maqsadlarga töla yoşlik yillariga yetaklardi. Dastlabki varağida şunday qayd bor edi:

"Talabalikning eng katta boyligi – vaqt va imkoniyat. Bugun örganilmagan bilimni ertaga topiş mumkin, ammo yöqotilgan vaqt qaytmaydi."

Satrlarni öqir ekan, beixtiyor jilmaydi. Öşa paytda yozilgan bu fikr yillar ötsa ham öz ahamiyatini yöqotmagan edi. Çunki u hayoti davomida har bir imkoniyatdan foydalanişga intilib yaşadi. Sahifalaridan birida esa sana qöyilgan, uning tagiga atigi ikki söz bitilgandi: "Orzuim uşaldi."

Neça yillardan beri qalbida parvarişlab kelgan maqsadi uni Respublikadagi eng nufuzli dargohlardan biri – Toşkent davlat universitetiga yetaklagan edi. Ayniqsa, fizika fakultetiga hujjat topşirişning özi puxta tayyorgarlik va mustahkam bilim talab qilardi.

Imtihon kunlari hayajon bilan ötdi. Berilgan savollar uni talabalikka bir qadam yaqinlaştirar yo undan uzoqlaştirardi. Nihoyat, qabul qilinganlarning ismi-şarifi e'lon qilindi. Öz familiyasini röyxatdan topgan zahotiyoq, u hayotida yangi davr boşlanganini his qildi.

Şu tariqa 1967-yilda Ğofurjon Muhamedov talaba böldi. Öşa yillarga oid qaydlar orasida şunday yozuv bor:

"Fakultet ostonasiga ilk bor qadam qöydim. Oldinda meni qanday hayot kutayotganini bilmayman. Lekin bitta narsa aniq – bu yerga ilm yölidan boriş uçun keldim..."

Bu satrlarda yoş talabaning kelajak haqidagi tasavvuri juda sodda, ammo aniq qilib bitilgan edi. Institut uning köz öngida maktabdagi darsxonadan butunlay boşqa dunyo bölib körindi. Bu yerda fizika – kitobdagi formulalar emas, balki çuqur izlaniş, munozara va tajriba bilan boğliq tirik fan ekanini his qila boşladi.

Keçqurunlari kundalik daftari uning yaqin hamrohiga aylanardi. Kun davomida eşitgan fikrlari, tuşunmagan savollari, öqigan ma'lumotlari haqida qisqa-qisqa satrlar qoldirardi. Ba'zi sahifalarda ilmiy atamalar, ba'zilarida esa kelajak haqidagi mulohazalar bor edi.

Dargohda u texnika fanlari doktori, professor Ğiyos Umarov, Özbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Sodiq Azimov kabi öz davrining maşhur olimlaridan saboq oldi. Ustozlar faqat dars ötiş bilan çeklanmasdi. Talabalarni mustaqil izlanişga, fikrlarini dadil aytişga ham ruhlantirardilar. Bu uning kelgusi faoliyatiga ham ta'sir körsatdi.

Saodat MUSAYEVA

Tasavvur va haqiqat

Talaba bölişni juda köp orzu qilganman. Ammo orzularim bilan haqiqat birinçi kuniyoq yuzma-yuz kelişini kutmagandim.

Universitetning köpçilikka taniş, eng katta va körkam binosida tahsil olaman, deb tasavvur qilardim. Ana şu hayajonli öylar bilan universitet sari yöl oldim. Biroq darslarim boşqa binoda bölib ötişini bilganimda, köz oldimda gavdalangan manzara bilan haqiqiy holat örtasida katta farq borligini angladim. Öşa payt içimda birgina savol aylanardi: «Nahotki, şu bölsa?» Bugun öşa kunlarni eslab, beixtiyor tabassum qilaman.

Kursdoşlarim bilan dastlab, hammamiz bir-birimiz uçun begona edik. Ammo vaqt ötib, qanday qilib bir oilaga aylanganimizni özimiz ham sezmay qoldik. Tanaffuslardagi samimiy suhbatlar, birga baham körilgan yeguliklar, beğubor kulgular va oddiygina kundalik voqealar talabalik hayotimning eng yorqin xotiralariga aylandi. Bugun guruhdoşlarimni juda qadrlayman. Çunki ular bilan ötayotgan har bir kun xotiramda alohida bir sahifa bölib qolmoqda.

Hayotimdagi eng unutilmas lahzalardan biri esa "Talabalikka qasamyod" marosimi böldi. Sahnada turardim, yuragim hayajondan tez urar, köz öngimda kursdoşlarim, atrofimizda esa yangi hayotimizning ilk tantanali onlari... Aynan şu daqiqalarda qalbimdagi barça şubhalar tarqab ketdi.Ba'zan özimga: "Nega aynan şu universitetni tanladim?" degan savolni berardim. Ammo qasamyod qabul qilayotgan paytimda bir narsani çuqur his qildim: talaba bölişning özi katta baxt va şaraf ekan. Men endi bu dargohning bir bölagiman. Uning nomi bilan ataliş, CDPUda bilim oliş men uçun nafaqat faxr, balki katta mas'uliyat hamdir.

Men filologman. Ona tilimizning çeksiz boyligi, adabiyotimizning teran ma'nolari har kuni menga yangi olamlarni kaşf etadi. Har bir öqilgan asar, har bir örganilgan söz kelajakdagi orzularim sari yana bir qadamdir. Bir kun kelib, öqituvçi bölişni, şogirdlarim qalbida ona tilimizga muhabbat uyğotişni istayman. Zero, men uçun filolog böliş – şunçaki kasb tanlaş emas, balki tilimiz va adabiyotimizga bölgan mehrni boşqalarga ham ulaşişdir.

Bugun esa bir narsani çin dildan ayta olaman: men şu universitet talabasi ekanimdan baxtiyorman! Birinçi kundagi hayajon, kutilmagan holatlar va içimdagi şubhalar, aslida, eng gözal hikoyamning boşlanişi bölgan ekan.

Axir talabalik – faqat auditoriyalar, ma'ruzalar va imtihonlardan iborat emas. U yangi döstlar, kutilmagan uçraşuvlar, katta orzular, ilk muvaffaqiyatlar va umr böyi yodda qoladigan lahzalar demakdir.

Xalqaro talabalar kuni barçamizga muborak bölsin! Har bir talabaning orzulari röyobga çiqsin, talabalik yillari eng gözal xotiralarga aylansin!

Mahliyo YULDAŞEVA,
Özbek tili va adabiyoti yönalişi
1-bosqiç talabasi

KEÇAGI ORZULAR – BUGUNGI MAQSADLAR: LITSEYDAN UNIVERSITETGAÇA



Mening Çirçiq davlat pedagogika universiteti bilan tanişuvim talaba bölişimdan ança avval boşlangan. Maktabni tamomlagaç, universitet qoşidagi akademik litseyda tahsil oldim. Öşa davrda olgan bilimlarim, ustozlarimning saboqlari va ta'lim muhiti mening kelajakdagi tanlovimga ham öz ta'sirini ötkazdi.

Bugun esa keçagi litsey öquvçisi sifatida taniş bölgan ta'lim dargohimga talaba bölib qaytdim. Bu men uçun alohida quvonç va faxr. Ilgari litsey öquvçisi sifatida katta orzular bilan universitet hayotiga nazar solgan bölsam, endi uning bir qismiga aylandim.

Çirçiq davlat pedagogika universitetining Iqtisodiyot yönalişida tahsil olişim menga yangi imkoniyatlar eşigini oçdi. Universitetdagi ta'lim jarayoni, ustozlarimning tavsiyalari, amaliy maşğulotlar va talabalar uçun yaratilayotgan imkoniyatlar mening maqsadlarim sari dadil qadam taşlaşimga yordam bermoqda.

Men uçun bugungi talabalik şunçaki yangi bosqiç emas. Bu – bir vaqtlar orzu qilgan manzilimga yetib keliş, taniş dargohda yangi maqsadlar bilan öz yölimni davom ettiriş imkoniyatidir.

Keça şu dargohning litseyida orzularimga poydevor qöygan bölsam, bugun universitetida kelajagimni bunyod etyapman!

Diana MIRZAYEVA,
Iqtisodiyot yönalişi 1-bosqiç talabasi

Ushbu qo'shsahifa Chirchchiq davlat pedagogika universitetining Axborot xizmati tomonidan tayyorlandi.